

SHERMUHAMMAD AVAZBIY O'G'LI MUNIS IJODIDAGI "MUNIS UL-USHSHOQ" ASARIDAGI QIT'A VA RUBOIYLAR TAHLILI.

Farg'ona davlat universiteti

filologiya fakulteti 3-bosqich talabasi

Vasijonova Surayyo

Annotatsiya: ushbu maqolada Shermuhammad Avazbiy o'g'li Munis o'ziga xos hayotiy izlanishlari, shoir ijodidagi Munis ul-ushshoq asarining o'ziga xos jihatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Shermuhammad Avazbiy o'g'li Munis, Munisning ustozlari, adabiy merosi, Munis ul-ushshoq, qit'a, ruboiy.

Shermuhammad Avazbiy o'g'li Munis XVIII asr oxiri, XIX asr boshlarida Xorazmda yashab ijod etgan yirik o'zbek shoiri, tarixchisi, taijimoni va xattotidir. Shermuhammad Munis 1778-yilda Xiva yaqinidagi Qiyot qishlog'ida Avazbiy mirob oilasida dunyoga keldi. Otasi Avazbiy Xeva xonligida bosh mirob lavozimida ishlagan. Uning bolaligi to'kin-sochinlikda, mehr-muhabbat qurshovida o'tadi. U ibtidoiy ta'limni Qiyot qishloq maktabida oldi, Xeva madrasalarida tahsil ko'rdi. Shermuhammad bo'sh paytlarida sevimli mashg'uloti - mutolaa bilan shug'ullanadi. O'zining ta'kidlashicha, tarixiy asarlarni, she'rlarni o'qish unga huzur bag'ishlagan. Dunyoning mayda tashvishlaridan qutqazgan. Ruhiy ko'tarinkilik va umidvorlik baxsh etgan: "Agar falaki g'addorning gunogun hodisoti hujum qilsa, she'r mushohadasi bilakim, mahzunlar unsi va ma'munlar jalisidur, rafi malolat qilur erdim.

Agar zamoni nopoydorning rango-rang ofati g'uluv etsa, tavorix mutolaasi bilakim, avzoi ahli olam vuqufiga sabab va kayfiyatisuluki bani odam ittiloig'a boisdur, dafi kulfat qilur erdim ". Munisning hayoti haqida bizgacha yaxlit va aniq ma'lumot etib kelmagan. Uning taijimaiy holi lavhalarini tiklovchi yagona manba asarlaridir. Ayniqsa, shoiming hasbi hol g'azallari va umuman, she'riyati, "Munis ul-ushshoq" devoniga yozgan debochasi, tarixiy asarlari muallifning taijimaiy holi haqida ma'lumot beradi.

Shoiming yoshlik yillari, jisman va fikran ulgʻayib, hayot murakkabliklari bilan toʻqnashuvi, badiiy ijod maydoniga endi qadam qoʻygan ijodkoming ijtimoiy ziddiyatlardan taʼsirlanishi manzaralarini koʻz oldimizda haqqoniy gavdalandiradi.

Shermuhammad Munisning oʻspirinlik yillari yoshlik ehtirolari, zavq-shavq, qizgʻin va maroqli izlanish bilan kechdi. U madrasa taʼlimi bilan cheklanmadi. Arab, fors. tillarini mukammal egalladi.

Sharq madaniyati boyliklarini tashnalik, tirishqoqlik bilan oʻrgandi. Sheʼr mutolaasi bilan shugʻullandi, zamonasidagi fozillar davrasida adabiy suhbatlarda ishtirok etdi. Oʻzi ajoyib sheʼrlar yozish barobarida Sharq adabiyotining qutlugʻ

anʼanalarini mehr, ixlos bilan oʻzlashtirdi. Keyinchalik Munis bir

gʻazalida Xusrav Dehlaviy, Hofiz Sheroziy, Lutfiy, Firdavsiy,

Anvari, Saʼdiy, Jomiy, Bedil va Navoyini ruhiy-maʼnaviy ustozlari

sifatida mamnuniyat bilan xotirlaydi. Bu Munisning shoir va

mutafakkir boʻlib etishuvida ulaming har biridan katta fayz

topganidan dalolat beradi. Munisning adabiyotga boʻlgan havasini oshirishda uni sheʼr mashq qilishga va klassikasipuxta oʻrganishga ragʻbatlantirishga oʻsha zamonning Kiromiy, Ravnaq, Mavlono Nishotiy, Andalib kabi peshqadam va tajribali qalamkashlari muhim rol oʻynaydi. Kiromiyning oʻzi ustoz sifatida koʻradi va koʻplab asarlarida uning ismini keltirib oʻtadi. Bir sheʼrida quyidagicha bayon etadi:

Tong emas Munis, agar boʻlmas Kiromiy kadr kim,

Ustodi zohir- botin Kiromiydir manga...

Munis yuqoridagi baytida Agar Kiromiydek koʻngli toza, pok inson boʻlmaganiga Munis tong kabi boʻlmas edim deb taʼrif berib oʻtadi.

Munis yoshligidan husnixat bilan jiddiy shugʻullandi va xattotlik sanʼatida beqiyos kamolot kasb etdi. Munisning kotiblik salohiyatini koʻrsatuvchi dalillardan biri shuki, u

Navoyining “Mezon ul-avzon” asarini 1794-yilda ko‘chirgan. Qizig‘i shundaki, 16-17 yoshlardagi Munis “Mezon ul-avzon”ni oldingi ayrim xattotlar yo‘l qo‘ygan xatolarni tuzatib, savodli ko‘chirgan. Bu Munisning ishga aruz ilmining xos bilimdoni sifatida ham yondashganligidan dalolat beradi.

U “Munis ul-ushshoq” devoni, ilmiy-ma’rifiy ruhdagi “Savodi ta’lim” risolasi, “Firdavs ul-iqbol” hamda forsiydan o‘zbek tiliga o‘g‘irgan “Ravzat us-safo” (Mirxond) asari bilan o‘zbek madaniyati xazinasini boyitdi. Shermuhammad Munis tomonidan yuksak mahorat bilan yozilgan tarixiy asarlar o‘z mazmuni, keltirilgan ma’lumotlarning ko‘pligi va rang-barangligi bilan alohida o‘rinni egallaydi.

U ma’rifatparvarlik g‘oyalarini ilgari surdi, xalqni ongli bilimli bo‘lishga da’vat etdi. Munis Xorazmiy tarixshunos sifatida 1806 yildan boshlab Xiva xonligi tarixiga oid “Firdavs ul-iqbol” (“Baxt bog‘i”) nomli tarixiy asar ham yoza boshladi. Bu asarning 1812 yilgacha bo‘lgan qismini Munis Xorazmiy yozib, 1812 yildan keyingi voqealarni Munis Xorazmiyning jiyani Muhammad Rizo Ogahiy davom ettiradi. Munisning „Firdavs ul-iqbol“ asari uzoq, davrni qamrab olgan bo‘lib, Markaziy Osiyo, ayniqsa, Xiva xonligi tarixini o‘rganishda qimmatli manbadir. Asarda Xorazmning qadimiy davri bilan bir qatorda, Xiva xonligining 1825-yilgacha bo‘lgan siyosiy tarixi bayon etilgan, toj-taxt, boylik uchun olib borilgan kurashlar va, shuningdek, Xiva xonlarining qo‘shni turkman va qoraqalpoq xalqlari bilan bo‘lgan munosabatlari haqida ham ko‘plab ma’lumotlar keltirilgan. Munis o‘z davridagi sug‘orish inshootlari va yer-suv munosabatlariga doir „Arnalar“ (arna-anhor, kanal) nomli risola ham yozgan. Bu risola 18-asr oxiri va 19-asr boshlaridagi dehqonchilik bilan bog‘liq, ijtimoiy munosabatlarni o‘rganishda ahamiyatli. O‘ttiz yildan ortiq ijod qilgan adibning ota-bobolaridan meros bo‘lib kelayotgan sulolaviy kasb miroblik haqida “Ornalar” nomli risolasi biz uchun nihoyatda qimmatlidir. Ushbu kitob tufayli biz vohada suvchilik kasbi, dehqonchilik tarixi, suv uchun bo‘lgan urushlar tarixi bilan bog‘liq ijtimoiy siyosiy voqealardan xabardor bo‘lamiz. Munisning savod chiqarishni yengillatish va xusnixat san’atini rivojlantirish masalalariga bag‘ishlangan „Savodi ta’lim“ (1804) she’riy risolasi ham bor. Munisning asosiy adabiy merosi – 1815—1820-yillarda tuzilgan „Munis ul-ushshoq“ („Oshiklar do‘sti“) devoni g‘azal, muhammas,

qasida, ruboiy, qit'a va boshqa janrlardan iborat bo'lib, 20000 dan ziyod misrani o'z ichiga olgan. U xattotlar tomonidan qayta-qayta ko'chirilib, 1880-yilda Xiva toshbosmasida nashr etilgan. Munis she'riyati mavzu jihatidan rang-barang. She'rlari oshiqona, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ta'limiy, hasbi hol yo'nalishlarida ijod etilgan.

Shoiming 10.000 baytga yaqin she'riy merosi mavjud. Devonida g'azal, muxammas, musaddas, ruboiy, tuyuq, qit'a, qasida, chiston kabi o'ndan ortiq mumtoz janrlarda bitilgan asarlari jamlangan. Munis hayoti davomida ikki marta devon tuzgan. Birinchisi, 1804-1805-yillarda jamlangan. U ilmda "Ilk devon" nomi bilan yuritiladi.

Ikkinchisi, 1813-1814-yillarda jamlangan bo'lib, "Mukammal devon" nomi bilan yuritiladi. Shoiming o'zi uni «Munis ul-ushshoq» (Oshiqlar do'sti) deb nomlagan. "Munisul-ushshoq" devoni debocha bilan boshlanadi. Unga shoiming 8.446 bayt asari kiritilgan.

Munis she'riyatidagi tayanch mavzu - ishq. Mumtoz adabiyotdagi an'anaga ko'ra, shoir ijodida ham ishq chuqur mazmunga ega. Shoir iming vositasida insoniyat ruhiy dramasin yoritib beradi. She'rlarida u bilan bog'liq farahbaxsh tuyg'ular ifodasini ham, iztiroblar, armonlar tasvirini ham kuzatamiz. Tuyg'ulaming ana shunday butun murakkabligi bilan yoritilishi shoir she'rlariga samimiylik va tabiiylik baxsh etadi.

Asarning asosiy g'oyalari:

Haqqoniy ishq insonni komillikka yetaklovchi vazifalar.

Ilm va ma'rifat insonni jaholatdan qutqaradi.

Axloq va adolat jamiyat hayotining asosi bo'lishi kerak.

Odamning haqiqiy go'zalligi uning qalb pokligi va vafodorligidadir.

"Munis ul-ushshoq" o'zbek mumtoz adabiyotida ishqiy-ma'naviy dostonlar an'anasini davom ettirgan muhim asardir. U Alisher Navoiy, Jomiy, Fuzuliylarning ishq falsafasiga yaqin turadi.

Bu asar Munisning shoirlik iste'dodini, badiiy mahoratini va falsafiy tafakkurini namoyon etadi.

Qit'a (arab. — bo'lak, qism, parcha) — mumtoz adabiyotda lirik janr. She'riy shakl sifatida qasida va g'azaldan oldin paydo bo'lgan. Tuzilishiga ko'ra, gazalga yaqin turadi, lekin qit'ada matla' qofiyalanmaydi, hajmi ham qat'iy emas, mazmun talabiga ko'ra, ikki bayt va undan ortiq (xatto 19 baytgacha) bo'lishi mumkin. Qit'adan hech kim Navoiychalik samarali foydalana olgan emas. U eng ko'p qit'a yozgan Ibn Yaminning ilg'or an'analarini o'z davri sharoitiga bog'lab rivojlantirgan, qit'ani o'zbek adabiyotida mustaqil janr darajasiga ko'targan. 16—19-asrlarda Bobur, Poshshoxoja, Munis Xorazmiy, Shavqiy Kattaqo'rg'oniy, Shukuriy Farg'oniy, Ogahiy, Miriy, Avaz O'tar, Almaiy va boshqa shoirlar Naioiy an'analarini davom ettirib, o'zbek qit'anavisligiga hissa qo'shdilar. Habibiy, Sobir Abdulla, Maqsud Shayxzoda, Mirtemir, Chustiy, Charxiy, E. Vohidov va boshqalar qit'alar yaratishgan. Hozir qit'alar barmoq vaznida ham yozilmoqda. Munis ham qit'a janrida keng ijod qilgan shoirlardan. Munis asosan ilm va ma'rifat, adolat va rahm shafqat, dunyo beqarorligi, insonning axloqiy kamoloti, shoh va xalq munosabati kabi mavzularda qit'alar yaratgan. Quyida Munisning qit'a janriga oid misollarni tahlil qilamiz:

Ulug'in tutmasa aziz kichik,

Xor bo'lsa ulug' kichikka netong.

Igna etkurdi to'ng'a chun ozor,

Andin o'ldi boshu oyog'i yalong.

Birinchi baytida: agar yoshlar kattalarni ulug'lamasa, hurmat qilmasa, natijada jamiyatdagi tartib buziladi. Shunda hurmat ko'rishi lozim bo'lgan katta odamning kichiklar oldida xor bo'lib qolishi ajablanarli emas. "Kattaga hurmat – kichikka izzat" qoidasining buzilishi jamiyatda beqarorlik keltiradi. Ota-onasini, ustozini, oqsoqolini hurmat qilmaydigan yoshlar bor joyda tartibsizlik paydo bo'ladi. Kichiklar o'z joyini bilmasa, kattalarning qadri pasayadi.

Ikkinchi baytida esa: To'ng'a — ayiq, juda kuchli hayvon. Agar kimdir unga igna bilan ozor bersa (juda kichik zarar), ayiq jazirama g'azab bilan o'sha odamni parchalab tashlaydi. Shundan shoir ko'rsatmoqchi bo'layotgan ma'no: Katta, kuchli, hurmatga loyiq odamni kichik bir xato bilan ranjitsang, oqibatda o'zing zarar ko'rasan. Kattani kamsitish — igna bilan ayiqni sanchishga o'xshaydi: zarari juda katta bo'ladi. Aqlli odam kuchli zotga ozor bermaydi va o'zini falokatga tashlamaydi. "Boshu oyog'i yalong" — haddan tashqari katta jazoni, kutilgan oqibatning dahshatlilikini ko'rsatadi.

Qit'aning asosiy g'oyasi: kattaga hurmat qilmagan kichik inson albatta zarar ko'radi. Hurmat — insoniy jamiyatning poydevoridir. Kattani ranjitish — ayiqni igna bilan sanchishga teng: foyda keltirmaydi, faqat katta ofatga olib keladi. Odam boshqalarga ozor bermasligi, ayniqsa ulug'-kattalarni ranjitmasligi lozim.

Ruboiy (arab. — to'rtlik) — Sharq xalqlari she'riyatida keng tarqalgan poetik janr. Tayin g'oyaviybadiiy va shakliy shartlarga binoan yaratilgan 4 misradan iborat falsafiy, axloqiy, ta'limiy yoki ishqiy mavzudagi she'r. Ruboiy hazaj baxrida (axram va axrab vaznlarida jami 24 ta) yoziladi. Boshqa bahrlarda yozilgan to'rtliklar dubaytiy, kuylanadiganlari esa tarona deb ataladi. Ruboiy qofiyalanish tartibiga ko'ra ikki xil bo'ladi. Birinchi xil ruboiylarning 1—2—4 misralari o'zaro qofiyalanadi (a-a-b-a shaklida). Mas: Ko'pdin berikim yoru diyorim yo'qtur, Bir lahza bir nafas qarorim yo'qtur. Keldim be sori o'z ixtiyorim birla, Lekin borurimda ixtiyorim yo'qtur. Munisning ruboiysiga nazar tashlasak:

Insondin o'zingga oshno qilma talab,

Jon farqig'a shamshiri balo qilma talab,

Maqbullik istasang bo'lursen mardud,

Qoch javru jafodin, vafo qilma talab.

Ruboiyning asosiy mavzusi: insonlardan ortiqcha mehr, do'stlik yoki vafo kutmaslik, odamga haddan tashqari ishonishning oqibatlari, dunyoviy munosabatlarning beqarorligi haqidagi pand-nasihatdir.

1-baytda: Shoir birinchi baytdan boshlab o‘quvchini ogohlantiradi. “Oshno bo‘lishni talab qilma” — ya’ni, hech kimdan majburan do‘stlik, yaqinlik kutma. Chunki insonning ko‘ngli o‘zgaruvchan, unga tayanish – xatarlidir. G‘oya: Insonning do‘stligi majburiy emas, uni talab qilib bo‘lmaydi.

2-baytda: “Jon-farqi” – tiriklik masalasida. “Shamshiri balo” — halokat qiluvchi qilich. Bu baytda shoir shuni demoqda: o‘zingni boshqa odamlar uchun halokatga qo‘ymagin, ulardan sadoqat yoki fidoyilikni talab qilib, o‘zingni xavfga tashlama. Yani, o‘zgan ortiqcha narsa kutish insonni qiynaydi.

3-baytda: Agar sen odamlar orasida maqbul bo‘lishni — hammaga yoqishni xohlasang, aksincha rad etilgaysan. Chunki hammaning ko‘nglini olish mumkin emas. Bu bayt juda falsafiy: kim odamlarning roziligini ortiqcha istasa, ko‘proq ranjiydi.

4-baytda: “Ja’ru jafo” — odamlarning ozori, bevafo qilishi. Shoir: odamlar jafo qilsa, ko‘nglingni og‘ritsa, bu tabiiy hol deb qabul qil, deydi. Chunki insondan vafo talab qilib bo‘lmaydi. Vafo — chin insoniy sifat, uni majbur qilib bo‘lmaydi.

Ruboiyning asosiy g‘oyasi — insondan vafo, samimiyat, yaqinlikni majburan talab qilib bo‘lmasligi, bunday hol odamni iztirobga solishi. Haqiqiy or-nomusli kishi boshqalarga bog‘lanib yashamaydi, balki o‘z qadrini biladi.

Xulosa qilib aytganda “Munis ul-ushshoq” — Munisning lirik ijodida alohida o‘rin tutadigan, oshiq ko‘nglining kechinmalarini ma’rifat, axloq va tasavvuf bilan uyg‘un holda tasvirlagan serma’no asardir. Bu devonda insonning ichki olami, ruhiy poklanishi va mehr-muhabbatning yuksak mohiyati chuqur falsafiy teranlik bilan yoritilgan. Umuman olganda, bu asar o‘z davri adabiyotining yuksak namunasi bo‘lib, Munisning badiiy mahorati, fikriy chuqurligi va tasavvufiy tafakkurini yuksak darajada namoyon etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Munisning "Munis ul-ushshoq" asari.
2. Shermuhammad Munis Xorazmiy "Saylanma" Toshkent 1980.
3. Sapayev G‘ulomjon Baxtiyorovich Munis Xorazmiy dunyoqarashi maqolasi. 2021.
4. 4.R.Majidiy. Munis Xorazmiy. Jurnal „Guliston“ 1935, № 3.